



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 121-128 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARISH VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



Norov Murodjon Maxmudovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaq sanoatida raqamli xizmatlar bozorining eksport va import ko'rsatkichlari tahlil qilinadi hamda ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari o'rganiladi. Tahlillar asosida raqamli xizmatlar eksportining hududiy o'sish sur'atlari, xizmatlar turlarining eksport va importdagi ulushi, shuningdek, asosiy hamkor davlatlar bilan raqamli xizmatlar almashinuvi ko'rsatkichlari keltirilgan. Maqolada xalqaro tajribalar va statistika asosida O'zbekiston sharoitida raqamli xizmatlar eksport salohiyatini kengaytirish yo'nalishlari, texnologik bazani rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va qonunchilikni liberallashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida xorijdan import qilinayotgan xizmatlar hajmining o'sishiga sabab bo'layotgan omillar ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyotda raqamli xizmatlar savdosini rag'batlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlari. Raqamli xizmatlar bozori, eksport, import, mintaq sanoati, raqamlashtirish, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik, texnologik infratuzilma, xizmatlar savdosi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье анализируются показатели экспорта и импорта на рынке цифровых услуг в региональной промышленности и изучаются перспективы развития данного сектора. На основе анализа представлены региональные темпы роста экспорта цифровых услуг, доли видов услуг в экспорте и импорте, а также показатели обмена цифровыми услугами с ключевыми странами-партнерами. В статье на основе международного опыта и статистических данных обосновываются направления расширения экспортного потенциала цифровых услуг в условиях Узбекистана, необходимость развития технологической базы, совершенствования инфраструктуры и либерализации законодательства. При этом также выделяются факторы, обуславливающие рост объема импорта услуг из-за рубежа в процессе цифровизации экономики. Результаты исследования служат для разработки предложений и рекомендаций по стимулированию торговли цифровыми услугами в региональной экономике. \

Ключевые слова. Рынок цифровых услуг, экспорт, импорт, региональная промышленность, цифровизация, экономическое развитие, международное сотрудничество, технологическая инфраструктура, торговля услугами, цифровая экономика.

Abstract. *This article analyzes the export and import indicators of the digital services market in the regional industry and studies the development prospects of this sector. Based on the analysis, the regional growth rates of digital services exports, the share of types of services in exports and imports, as well as indicators of digital services exchange with key partner countries are presented. The article, based on international experience and statistics, substantiates the directions of expanding the export potential of digital services in the conditions of Uzbekistan, the need to develop the technological base, improve infrastructure and liberalize legislation. At the same time, the factors that cause an increase in the volume of services imported from abroad in the process of digitalization of the economy are also highlighted. The results of the study serve to develop proposals and recommendations for stimulating trade in digital services in the regional economy.*

Keywords. *Digital services market, export, import, regional industry, digitalization, economic development, international cooperation, technological infrastructure, trade in services, digital economy.*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bugungi kunda global iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sanoat sohasida raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. So'nggi yillarda raqamli xizmatlar bozori nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirishda, balki eksport salohiyatini kuchaytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston va unga tutash mintaqalarda raqamli xizmatlarga bo'lgan talab ortib borayotgan bir paytda, bu sohaning eksport va import ko'rsatkichlarini tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va to'siqlarni aniqlash hamda rivojlanish istiqbollari belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli xizmatlarni tashqi bozorlarga muvaffaqiyatli chiqarish uchun texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanganligi, kadrlar salohiyati va qulay tartibga soluvchi muhit zarur hisoblanadi. Mazkur maqolada mintaqaviy sanoatda raqamli xizmatlar eksporti va importining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar hamda istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli yechimlarning eksport salohiyatiga ijobiy ta'siri va ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar ham beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda mintaqaviy sanoat kontekstida raqamli xizmatlar bozorining eksport va import ko'rsatkichlarini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanild **Ekstrapolyatsiya va prognozlash usullari** – mavjud raqamli xizmatlar eksport-import ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, kelgusi yillarda mintaqaning raqamli xizmatlar bozorida tutishi mumkin bo'lgan o'rni prognoz qilindi

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

“Mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorida eksport va import ko'rsatkichlari va rivojlanish istiqbollari” mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlardan ko'plab ishlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijiy olimlardan Michael E. Porter (1985) – “Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance” Porter raqobat ustunligi nazariyasida raqamli xizmatlar bozorining eksport-import faoliyatida innovatsion texnologiyalar muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.[1] Unga ko'ra, sanoat tarmoqlarida

raqamli infratuzilmani rivojlantirish eksport salohiyatini oshiradi, importga bo'lgan qaramlikni esa kamaytiradi.

Klaus Schwab (2016) – “The Fourth Industrial Revolution” Schwab raqamli iqtisodiyotda sanoatning yangi bosqichi – “raqamli transformatsiya davri”ni tahlil qilib, eksport va import xizmatlarining ko'p jihatdan sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things) va Big Data texnologiyalariga bog'liqligini asoslaydi.[2]

Paul Krugman (1991) – “Increasing Returns and Economic Geography” Krugman mintaqaviy iqtisodiyotda raqamli infratuzilma va transport-logistika tarmoqlari integratsiyasi eksport salohiyatini oshirishda muhimligini ko'rsatadi.[3]

Dani Rodrik (2017) – “Straight Talk on Trade” Rodrik xalqaro savdoda raqamli xizmatlar eksportini davlat siyosati orqali rag'batlantirish zarurligini aytadi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport faoliyatini kengaytirish muhimligini urg'ulaydi.[4]

A. S. Abdullaev (2021) – “Raqamli iqtisodiyot sharoitida eksport-import faoliyatini modernizatsiya qilish yo'nalishlari” Abdullaev O'zbekistonning raqamli infratuzilmasini eksportni qo'llab-quvvatlash uchun muhim omil sifatida ko'radi. U raqamli xizmatlar orqali eksport hajmini 20–25% gacha oshirish mumkinligini empirik asosda ko'rsatadi.[5]

N. Jo'rayev (2022) – “Hududiy raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari” Jo'rayev mintaqaviy raqamli xizmatlar bozorida eksport va import oqimlarini o'lchash uchun yangi indeks tizimini taklif etadi. Uning fikricha, raqamli transformatsiya eksport tarkibini diversifikatsiya qiladi.[6]

F. E. Qodirov (2023) – “Qashqadaryo viloyati sanoatida raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'nalishlari” Qodirovning tadqiqotida Qashqadaryo viloyatida raqamli eksport xizmatlarini (IT-outsourcing, elektron logistika, texnik xizmatlar) kengaytirish orqali YaHM o'sishini 18–22% gacha oshirish mumkinligi ko'rsatilgan.[7]

Tahlil va natijalar

Mintaqada sanoat faoliyati rivojini trend modellar asosida baholash bir nechta to'plam elementlari o'rtasidagi bog'lanishlarni solishtirish imkonini beradi. Bu jarayonlar bo'yicha vaqtli qatorlarning trend modellarini tuzish, iqtisodiy hodisalar hamda jarayonlar o'rtasida bog'lanishlarning miqdoriy yechimlarini korrelyatsiya koeffitsiyentlari orqali aniqlash, iqtisodiy rivojlanishining regression modellarini tuzish, sanoat korxonalarning rivojlanish jarayonlarini trend modellari orqali baholash va prognoz qilishni nazarda tutadi. Prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun dastavval tuzilgan ekonometrik modelni qator mezonlar asosida baholagan holda uni o'rganilayotgan jarayonga mos keluvchi eng yaxshi model ekanligini asoslash lozim bo'ladi va keyinchalik bu model asosida korxonaning asosiy ko'rsatichlarini kelgusi yillar uchun prognoz qiymatlarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Demak prognoz natijalarini taxlil qilishda statistik bog'liqligini, qaysi omil qanday ta'sir qilishini, nechta omil qanday ta'sir qilishini va h.k. o'rganib qaror qabul qilishimiz uchun kerak. Bu esa iqtisodiy-matematik usullardan foydalanishni taqozo etadi. Bu o'rinda Eviews paketli ekonometrik modellashtirish dasturi imkoniyatlari foydalanib, Mintaqa sanoat tuzilmasini takomillashtirishning regression modellari tuzildi. Mazkur dasturiy paket yordamida tahlil qilinayotgan ma'lumotlar o'rtasida statistik bog'liqliklar mavjudligini aniqlash mumkin va keyin olingan bog'liqliklardan foydalanib,

o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni eng muhimlarini olib prognoz qilish ham mumkin. Bundan maqsad ushbu jarayonga ta'sir etuvchi ko'p omilli ijobiy va salbiy oqibatlarni xisoblash, real obyektga qanchalik yaqinligini aniqlash va shu orqali amaliyot talablariga muvofiq takomillashtirishdan iborat.

1-jadval

Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning statistik ma'lumotlari (real qiymatlar)¹

Yillar	Deflyator indeksi (2010 yil bazaviy)	Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi (mlrd so' m) Y	Sanoatda band bo'lganlar soni (ming kishi) X1	Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi (mlrd so' m) X2	Sanoat subyekt korxonalari soni (birlik) X3	Sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati (mlrd so' m) X4
2002	8.5	34.7	2.89	22.59	0.23	189.38
2003	12.4	66.3	4.04	65.00	0.37	389.79
2004	18.0	139.1	5.63	138.83	0.54	610.65
2005	22.8	31.3	6.77	31.02	0.78	997.24
2006	26.4	49.8	7.49	49.89	0.91	1817.27
2007	32.1	232.2	13.16	412.93	1.16	2664.3
2008	39.6	286.5	13.34	1207.52	1.56	645.59
2009	48.3	50.8	18.06	2930.87	1.92	1058.83
2010	61.2	242.1	25.64	2405.83	2.58	977.91
2011	71.8	309.0	31.01	2930.87	3.25	1374.53
2012	100.0	558.0	47.60	3935.10	4.63	2875.90
2013	121.5	761.4	58.07	7064.37	5.61	4251.04
2014	140.3	887.1	68.18	8843.38	5.96	5533.99
2015	156.8	1368.7	144.41	13552.85	6.25	8191.70
2016	179.3	1727.0	170.33	17212.26	6.20	11356.86
2017	198.0	2167.9	190.27	2135.29	6.35	20160.42
2018	215.3	3127.2	23.467	9988.19	6.82	35564.33
2019	257.1	5234.8	246.81	16397.58	8.84	62893.08
2020	327.7	4788.6	298.20	26308.73	12.55	65281.11
2021	388.6	7282.7	345.85	35145.76	18.80	63050.73
2022	392.4	7298.1	351.6	3645.77	19.40	63982.73
2023	401.2	7310.3	365.7	3689.1	20.9	64253.6
2024	410.1	7350.6	389.4	3720.9	21.5	64789.6


Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Qashqadaryo viloyatida sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmiga ishlab chiqarish omillari ta'sirini qarab chiqildi. Buning natijasida ishlab chiqarish omillarini prognoz qiymatlarini turli ekonometrik modellar asosida amalga oshirgan holda ularga mos keluvchi sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmining prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi. Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun Qashqadaryo viloyati statistika

¹ Muallif ishlanmasi

boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida Sanoatda band bo'lgan ishlovchilar soni, Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni hamda Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tanlab olindi. Tahlil uchun 2002-2024 yillar ma'lumotlaridan foydalanildi. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra quyidagi 1-jadval shakllantiridi.

Keltirilgan ma'lumotlar, xususan Sanoat subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi hajmi, Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi hamda Sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati nominal ko'rsatkichlar hisoblanadi va ulardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish xulosalarni asosli bo'lmasligini ta'minlaydi. Buni inobatga olgan holda biz ko'rsatkichlarni real qiymatlarini aniqladik. Buning uchun deflyator indeksidan foydalanildi va 2010 yil bazis sifatida qabul qilindi (1-jadvalga qarang).

Dastlab 1- jadval ma'lumotlari asosida Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi vaqtga bog'liq, ya'ni trend modelini qarab chiqamiz. Modellashtirish jarayonida ko'rsatkichlarning rivojlanish qonuniyatlariga mos modelni tanlashda keng qo'llaniladigan usul grafik usuli ekanligini inobatga olgan holda undan foydalanildi



1 - rasm. Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sish tendensiyasi²

Sanoat subyektlari subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarish jarayonini prognozlash uchun hisoblangan trend modellari 1-rasmda ko'rsatilgan. Hosil qilingan trend modeli natijalari tahlili ko'ra, $R^2 = 0,86$ Fhisob=43,3 ga teng ekanligi aniqlandi. Keltirilgan tahlillar hamda barcha mezonlar bo'yicha aniqlangan holatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan $y = 8,4118x - 102,28x +$

² Muallif ishlamasi

651,93ko'rinishdagi regressiya tenglamasidan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanishga qaror qildik. Qashqadaryo viloyati sanoat subyektlari faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalarning kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymatini o'zgarish holatini prognozlash uchun amalga oshirilgan tadqiqot natijalari uning hech bir trend modeliga mos kelmasligini va ularning mezonlar bo'yicha qiymatlari talab darajasida emasligini ko'rsatdi.

Mintaqa sanoati subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning statistik ma'lumotlarining natural logarifm qiymatlari ($\ln x$)³

Yillar	Sanoat subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi (mlrd so'm) $\ln(Y)$	Sanoatda band bo'lganlar soni (ming kishi) $\ln(X1)$	Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi (mlrd so'm) $\ln(X2)$	Sanoat subyekt korxonalari soni (ming hisobida) $\ln(X3)$	Sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati (mlrd so'm) $\ln(X4)$
2002	6,01	3,52	5,57	1,00	7,70
2003	6,28	3,48	6,26	1,11	8,05
2004	6,65	3,44	6,64	1,10	8,12
2005	4,92	3,39	4,92	1,23	8,38
2006	5,24	3,34	5,24	1,24	8,85
2007	6,58	3,71	7,15	1,28	9,02
2008	4,85	3,51	8,02	1,37	7,39
2009	6,01	3,62	8,31	1,38	7,69
2010	5,98	3,73	8,27	1,43	7,37
2011	6,06	3,76	8,31	1,51	7,55
2012	6,32	3,86	8,27	1,53	7,96
2013	6,44	3,86	8,66	1,53	8,16
2014	6,44	3,88	8,74	1,44	8,28
2015	6,77	4,52	9,06	1,38	8,56
2016	6,87	4,55	9,16	1,24	8,75
2017	6,99	4,56	6,98	1,16	6,92
2018	7,28	2,38	8,44	1,15	7,40
2019	7,61	4,56	8,76	1,23	7,80
2020	7,28	4,51	8,99	1,34	7,59
2021	7,53	4,48	9,10	1,49	7,39
2022	7,68	4,59	9,91	1,89	7,89
2023	7,89	5,14	10,3	2,02	8,02
2024	8,02	5,58	10,9	2,80	8,78

Agar yuqorida keltirilgan (4) modelda

$\ln(y) = y'$, $\ln(a_0) = a_0'$, $\ln(x_1) = x_1'$, $\ln(x_2) = x_2'$, ..., $\ln(x_n) = x_n'$ belgilashlarni amalga oshirsak, u holda quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$y' = a_0' + a_1x_1' + a_2x_2' + \dots + a_nx_n' \quad (5)$$

³ Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida olingan

Regression tahlil natijalarini keltirib o'tamiz (8-jadvalga qarang).

2-jadval

Mintaqa sanoat subyektlari faoliyatini rivojlantirish uchun hisoblangan ko'p omilli darajali empirik model parametrlari⁴

Dependent Variable: Y				
Method: Least Squares				
Date: 10/01/22 Time: 22:30				
Sample: 2002 2021				
Included observations: 20				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.336425	0.246819	1.363040	0.1930
X2	0.490574	0.128385	3.821133	0.0017
X3	-3.107047	0.999089	-3.109879	0.0072
X4	-0.043386	0.223617	-0.194020	0.8488
C	5.723390	2.150235	2.661751	0.0178
R-squared	0.633464	Mean dependent var		6.405500
Adjusted R-squared	0.535721	S.D. dependent var		0.783000
S.E. of regression	0.533521	Akaike info criterion		1.793681
Sum squared resid	4.269668	Schwarz criterion		2.042614
Log likelihood	-12.93681	Hannan-Quinn criter.		1.842275
F-statistic	6.480914	Durbin-Watson stat		1.640967
Prob(F-statistic)	0.003095			

Natijalarga ko'ra chiziqli modelga nisbatan darajali modelda mezonlar bo'yicha ko'rsatkichlarning ahamiyatlilik darajasi ancha oshganligini kuzatish mumkin. Xususan, chiziqli modelda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga Sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati miqdori ta'sirini ifodalovchi koeffitsiyenting Styuden mezon bo'yicha ehtimollik koeffitsiyenti 0.84 ni tashkil qilgani holda ishonchlilik darajasi 28% foizni tashkil qilgan bo'lsa, darajali modelda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 0.22 va 78 foizga teng bo'lmoqda. Bundan tashqari determinatsiya koeffitsiyenti hamda DW mezonlari bo'yicha ham ijobiy natijalarga erilgan.

Xulosa va takliflar

Mintaqada sanoat subyektlari faoliyatining rivojlantirish uchun uning holatidan kelib chiqib, baholash mezonlariga asosan, chiziqli va darajali ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mintaqada sanoat subyektlari faoliyatining rivojlantirish va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi ekonometrik model tuzish va tahlil qilish uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz. Eviews 9 dasturi asosida olingan natija orqali quyidagi empirik modelni hosil qildik:

⁴ Muallif ishlanmasi.

$$Y = e^{-5.723} * X_1^{0.336} * X_2^{0.490} * X_3^{-3107} * X_4^{-0.043}$$

$$t_{\text{хис}} \quad (2.661) \quad (1.363) \quad (3.821) \quad (-3.109) \quad (-0.194) \quad (6)$$

Mintaqa sanoati subyektlari faoliyatini rivojlantirish va omillar ta'sirini baholash uchun ishlab chiqilgan empirik model (6) natijasini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijaga ega bo'ldik: Mintaqa sanoat subyektlari faoliyatini rivojlantirishga ya'ni ular tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot miqdorini oshirishga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida bandlar soni qaraladi. Ishlab chiqilgan model natijalariga ko'ra sanoatda band bo'lganlar soni bir foizga oshishi Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmini 0,336 foizga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini kiritilgan investitsiyalar bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,490 foizni tashkil qilgani holda, investitsiyalarni bir foizga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini -3107 foizga kamayishiga olib keladi. Mazkur ko'rsatkich aslida musbat qiymatga ega bo'lishi lozim edi, uning manfiy qiymatga ega bo'lishi, omillar orasida o'zaro bog'liqlikning yuqori bo'lganligi sabibi yoki investitsion resurslardan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasidir. Mintaqa sanoat subyektlari soni hamda sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati bo'yicha elastiklik koeffitsiyentlari mos ravishda -3,109 va -0.194 ga teng ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki ikkala omilning oshishi ham ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Michael E. Porter (1985) – "Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance".
2. Klaus Schwab (2016) – "The Fourth Industrial Revolution".
3. Paul Krugman (1991) – "Increasing Returns and Economic Geography" Krugman mintaqaviy iqtisodiyotda raqamli infratuzilma va transport-logistika tarmoqlari integratsiyasi eksport salohiyatini oshirishda muhimligini ko'rsatadi.
4. Dani Rodrik (2017) – "Straight Talk on Trade".
5. S. Abdullaev (2021) – "Raqamli iqtisodiyot sharoitida eksport-import faoliyatini modernizatsiya qilish yo'nalishlari".
6. N. Jo'rayev (2022) – "Hududiy raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari".
7. Jo'rayev mintaqaviy raqamli xizmatlar bozorida eksport va import oqimlarini o'lchash uchun yangi indeks tizimini taklif etadi. Uning fikricha, raqamli transformatsiya eksport tarkibini diversifikatsiya qiladi.
8. F. E. Qodirov (2023) – "Qashqadaryo viloyati sanoatida raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'nalishlari".
9. Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт.-Т.: "Баркамол фойз медиа" нашриёти 2018 й. 70-6.
10. Эгамов Б., Бахтияров Ш. Минтақада машинасозлик ва енгил саноат корхоналарида аутсорсинг хизматларини ташкил. Республиканская научно-методическая конференция молодых учёных ТерДУ 31 марта-1 апреля 2017 г 1-часть Термиз 2017.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

